


Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi


“Qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo'nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Paxta tozalash korxonalarida atrof muhit ekologiyasini yaxshilash uchun changsiz-lantirish qurilmasini ishlab chiqish</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: Paxta tozalash korxonalarida atrof muhit ekologiyasini yaxshilash uchun changsiz-lantirish qurilmasini ishlab chiqish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> -paxtani dastlabki ishlash texnologiyasidan chiqayotgan chang miqdorini kamaytirish, pnevmotransport tizimini takomillashtirish bilan tozalash samarasini 95-98% ga etkazish; -paxtani tashishning pnevmotransport tizimidagi mashina va agregatlarning tajriba namunalarini tayyorlash uchun kerakli hujjatlarini ishlab chiqish; -uskunalar namunasini tayyorlash, paxta tozalash korxonalaridan biriga o'rnatish; - paxta tozalash korxonalarida atrof muhit ekologiyasini yaxshilash uchun changsiz-lantirish qurilmasini ishlab chiqish; - ishlab chiqiladigan pnevmotransport tizimi barcha paxta tozalash korxonalarining paxtani pnevmotransport tashish bo'yicha targ'ib qilinadi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: : Tadqiqot natijalari paxta-to'qimachilik klasterlari tizimidagi paxta tozalash korxonalarida sinovdan o'tkaziladi sinovdan o'tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<p align="center">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1800 barobari</p>		

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3600 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi


“Qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo'nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Ingichka tolali paxtani jinlaydigan ish unumdorligi yuqori bo'lgan valikli jinni ishlab chiqish</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: Ingichka tolali paxtani jinlaydigan ish unumdorligi yuqori bo'lgan valikli jinni ishlab chiqish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ingichka tolali paxtani samarali jinlash bilan import o'rnini bosadigan valikli jinning konstruksiyasi ishlab chiqiladi; - nazariy tadqiqotlar asosida ingichka tolali paxtani samarali jinlash bilan ish unumdorligini oshiradigan va ishchi baraban sarfini tejaydigan qurilmaning parametrlari va ish rejimi asoslanadi; - tajribaviy tadqiqotlar asosida ingichka tolali paxtani jinlashda tola va chigitning sifatini oshiradigan, import qilinayotgan valikli jinlar o'rnini bosish bilan yuqori samaradorlikda ishlashini ta'minlaydigan valikli jin yaratiladi; - ingichka tolali paxtani jinlaydigan ish unumdorligi yuqori bo'lgan valikli jinni ishlab chiqiladi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari paxta-to'qimachilik klasterlari tizimidagi paxta tozalash korxonalarida sinovdan o'tkaziladi sinovdan o'tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p align="center">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1600 barobari</p>

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3200 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi


“Qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo'nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Masofadan zondlash va yaylov yerlari hisobini yuritish materiallari asosida raqamli yaylov klassifikatorini ishlab chiqish</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: Masofadan zondlash va yaylov yerlari hisobini yuritish materiallari asosida raqamli yaylov klassifikatorini ishlab chiqish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - degradatsiyaga uchragan yaylovlarning “kuchsiz”, “o'rtacha” va “kuchli” darajalarga bo'lingan shartli belgilari yaratiladi va yaylovning elektron raqamli klassifikatori ishlab chiqiladi; - yaylov yerlarining monitoringini yuritishda GATga asoslangan mexanizmi asoslanadi, natijada yaylov monitoringi natijalari aniqligi va jarayon tezligi ortishiga erishiladi; - yaylov yerlarini davriy xatlovdan o'tkazish masofadan zondlash orqali amalga oshiriladi, bu esa degradatsiya jarayonlarini yuqori aniqlikda aniqlash hamda keskin relefga ega yaylov uchastkalarining ham hisobi yuritilishini ta'minlaydi; - degradatsiyaga uchragan yaylov yerlarining normativ qiymatini belgilashda sifati jihatidan tuzatuvchi koeffitsiyentlar qo'llash orqali hisoblash va tabaqalashtirilgan yer solig'ini hisoblash tartibi tuziladi; - raqamli yaylov klassifikatorlarini amaliyotda qo'llash bo'yicha ishlab chiqarishga tavsiyanoma va yo'riqnoma ishlab chiqiladi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Qishloq xo'jaligi vazirligida tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p align="center">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2000 barobari</p>

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 4000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi


“Qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo'nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>MODSNOW dasturi asosida O'zbekistonning tog'li hududlaridagi qor qoplami o'zgarishini va daryo oqimini prognozlash metodikasini takomillashtirish hamda prognozlashning aniqligini baholash</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: MODSNOW dasturi asosida O'zbekistonning tog'li hududlaridagi qor qoplami o'zgarishini va daryo oqimini prognozlash metodikasini takomillashtirish hamda prognozlashning aniqligini baholash bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'zbekiston Respublikasidagi kunlik qor qoplami dinamikasini tahlilini yuritish maqsadida MODSNOW dasturiga respublika chegarisi qo'shiladi; - MODSNOW dasturi yordamida qor qoplami aniqlash va bulutlarni tozalash algoritmlarining aniqlik darajalari hisoblanadi; - MODSNOW dasturida tayyorlangan qor qoplami maydoni asosida qor qoplami indeksi avtomatik aniqlanadi; - kunlik qor qoplamlari xaritalarini tayyorlash algoritmi yaratiladi; - daryo havzasidagi qor chizig'i dinamikasi, iqlim o'zgarishi va daryolarning to'yinish tiplarining regression bog'liqligi aniqlanadi; - MODSNOW dasturi asosida gidrologik prognozlash tenglamalari ishlab chiqiladi va prognozlarning o'zini oqlash koefitsientlari aniqlanadi; - oliy ta'lim tashkiloti talabalari uchun “MODSNOW dasturi asosida gidrologik prognozlash” nomli o'quv qo'llanma yaratiladi, yosh izlanuvchilar uchun MODSNOW dasturidan foydalanish bo'yicha treninglar o'tkaziladi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p align="center">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2150 barobari</p>

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 4300 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi


“Qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo'nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Iqlim o'zgarishi sharoitida Chotqol va Piskom daryolari suv resurslari o'zgarishini gidroenergetik nuqtai nazardan prognozlash modelini ishlab chiqish</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: Iqlim o'zgarishi sharoitida Chotqol va Piskom daryolari suv resurslari o'zgarishini gidroenergetik nuqtai nazardan prognozlash modelini ishlab chiqish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - suv resurslarining shakllanishidagi ko'p yillik meteorologik va gidrologik malumotlarini statistik usullar yordamida qayta ishlanadi iqlim modellari va ssenariylari asosida tadqiqot xududiga iqlim o'zgarishining bevosita ta'siri o'rganiladi; - so'nggi avlod global va regional iqlim modellarining ssenariylari asosida Chotqol va Piskom daryolari oqimining shakllanishiga ta'sir etuvchi meteorologik omillarning (atmosfera yog'inlari va havo harorati) yaqin kelajakda (2025-2030 yillar) mavsumiy o'zgarishi statistik va dinamik usullar asosida baholanadi va havza bo'yicha prognostik ma'lumotlar (model proeksiyalari) tayyorlanadi; - gidrologik va meteorologik kattaliklar, daryolar oqimining ekstremal ko'rsatkichlari, oqib o'tish vaqtlari hamda yil ichida va yillararo o'zgarishlari aniqlanadi; - daryo o'zanida mavjud va kelajakda quriladigan GESlar kaskadining ekspluatatsion rejimi uchun prognozlash metodikasi ishlab chiqiladi; - daryolar oqimi bilan meteorologik omillar, xususan, mavsumiy atmosfera yog'inlari miqdori, turi va havo harorati orasidagi ko'p hadli bog'lanishlarning normallashtirilgan regressiya tenglamalari ishlab chiqiladi, ular asosida suv xo'jaligi yilida oqim miqdorini hisoblash va prognozlash nomogrammalari tuziladi; - GECdan samapali foydalanishni tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<p align="center">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2150 barobari</p>		

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 4300 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo'nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>O'zbekiston va unga tutash hududlarda shakllanadigan tog' daryolarida suv kamayishini prognozlashning geoinformatsion texnologiyasini yaratish</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: O'zbekiston va unga tutash hududlarda shakllanadigan tog' daryolarida suv kamayishini prognozlashning geoinformatsion texnologiyasini yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - daryolarda kam suvli yillarni aniqlashning oqimning modul koeffitsientlari yordamida takomillashtirilgan usuli va uslublari yaratiladi; - daryolarda kam suvli yillarni suv xavfsizligi bo'yicha baholashda muhim hisoblangan halokatli kam suvli yillarni aniqlashning empirik ifodasi ishlab chiqiladi; - daryolarda kam suvli yillar takrorlanishi bilan meteorologik omillar, xususan, mavsumiy atmosfera yog'inlari miqdori, turi va havo harorati orasidagi bog'lanishlarning regressiya tenglamalari ishlab chiqiladi; - tog' daryolarida kam suvli yillarni belgilovchi gidrologik kattaliklar bilan meteorologik omillar o'rtasidagi ko'p xadli bog'lanishlarning normallashtirilgan regressiya tenglamalari, ular asosida kam suvli yillardagi oqim miqdorini hisoblash va prognozlash nomogrammalari yaratiladi; - O'zbekiston tog' daryolari havzalarida kam suvli yillarni nisbiy sonini tavsiflovchi hamda kam suvlilik koeffitsientlarining taqsimlanish kartalari yaratiladi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p style="text-align: center;">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2150 barobari</p>

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 4300 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*